



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-yanvar

7-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda PF–229-son Farmoni ijrosi haqida”gi 10-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabr kuni yetakchi tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan muloqoti doirasida bildirilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish, tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bozorda teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta‘minlash, shuningdek, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda “Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda PF–229-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi 10-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi 10-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi 2024-yil 27-dekabrda PF–229-son Farmoni bilan:

qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i stavkalari 2028-yil 1-yanvarga qadar oshirilmasligi belgilab qo‘yilganligi;

2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo‘nalishlarida ishlab chiqarish faoliyatini yuritayotgan va quyidagi barcha shartlarga bir vaqtning o‘zida javob beradigan tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig‘i va o‘zlarining xodimlari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari 1 foiz etib belgilanganligi:

jami xodimlar sonining kamida 15 foizi Ijtimoiy himoya yagona reestri yoki Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalarning a‘zolaridan tashkil topganda;

har oyda har bir xodimga ish haqi miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining ikki baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblanganda;

soliq davrida tikuv-trikotaj, poyabzal yoki charm-attorlik mahsulotlarini realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumi jami tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadning kamida 90 foizini tashkil etganda;

2025-yil 1-apreldan boshlab daromadidan qat‘i nazar, farmasevtika mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanuvchi yoki tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e‘tirof etilganligi;

bunda realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha berilgan onlayn nazorat-kassa texnikasi yoki virtual kassa cheklari, rasmiylashtirilgan elektron hisobvara-qfakturalar hamda boshqa tashqi va ichki ma‘lumotlar asosida soliq organlari tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisobotlar avtomatik tarzda shakllantirib borilishi nazarda tutilishi;

Savdo-sanoat palatasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning Savdo-sanoat palatasi qoshida Tadbirkorlarga tashqi moliya bozorlariga

chiqishga ko‘maklashish markazini (keyingi o‘rinlarda – Markaz) tashkil qilish to‘g‘risidagi taklifi qo‘llab-quvvatlanganligi, bunda: Markaz tadbirkorlik subyektlariga xalqaro moliya institutlari, xorijiy moliya tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlaridan davlat kafolatisiz mablag‘lar jalb qilish bo‘yicha konsalting xizmatlar ko‘rsatishi;

Markazda har yili kamida 100 nafar tadbirkorlik subyektiga xizmat ko‘rsatilishi;

Markazni joylashtirish, saqlash, xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb qilish va Markaz faoliyati bilan bog‘liq boshqa xarajatlar Savdo-sanoat palatasining Tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan amalga oshirilishi;

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 2025-yilda aylanma mablag‘larini to‘ldirishga ajratiladigan kreditlar uchun “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJga (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) uning talabnomasiga asosan 5 yil muddatga 2028-yil 1-yanvardan qaytarish sharti bilan 2 foiz stavkada 100 million AQSh dollari miqdorida qo‘shimcha mablag‘ ajratganligi;

belgilanishicha, Kompaniya tomonidan:

qishloq xo‘jaligi, sanoat va savdo korxonalarining aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun ajratiladigan kreditlarni moliyalashtirishga tijorat banklariga moliyaviy resurslar ajratilishi;

tijorat banklarining aylanma mablag‘larini to‘ldirishga ajratiladigan kreditlar uchun kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kirishi), biroq 10 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etilishi;

taqdim etiladigan kafillik bo‘yicha yuzaga keladigan majburiyatlarni bajarish uchun Kompaniya mablag‘lari hisobidan 50 million AQSh dollari miqdorida depozit mablag‘lari shakllantirilishi, bunda Kompaniya tomonidan taqdim etiladigan kafilliklarning maksimal miqdori shakllangan depozit mablag‘lari miqdoridan oshmasligi kerakligi;

Savdo-sanoat palatasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining tadbirkorlik subyektlariga 2025-yil 1-yanvardan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kalibrovka qilish va maxsus idishlarda qadoqlash loyihalari hamda aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun Kompaniya resurslari hisobidan milliy valyutada revolver kreditlarni tijorat banklari orqali ajratish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab:

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib chiqiladigan har bir kilogramm paxta ip-kalavasi uchun yig‘im uning eksport narxidan 2 foiz miqdorda, biroq 0,05 AQSh dollaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda o‘rnatilganligi;

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib chiqiladigan har bir kilogramm trikotaj mato uchun yig‘im uning eksport narxidan 1 foiz miqdorda o‘rnatilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashining (keyingi o‘rinlarda – Jamoatchilik kengashi) quyidagi takliflari ma‘qullanganligi:

a) Jamoatchilik kengashining tarkibini 1-ilovaga muvofiq yangilagan holda ekspert guruhlarini tashkil qilish;

b) Jamoatchilik kengashi va ekspert guruhlar yig‘ilishlarini oyiga kamida bir marotaba:

vakolatli organlar, jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Soliq qo‘mitasi, Bojxona qo‘mitasi rahbarlari;

Bosh vazir o‘rinbosarlari (J.A.Qo‘chqorov, J.A.Xodjayev) ishtirokida o‘tkazib borish;

v) Jamoatchilik kengashi yig‘ilishlarida ko‘tarilgan masalalar va ularning yechimi bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritib borish; tadbirkorlik masalalari bilan ishlashning quyidagi tartibi joriy etilganligi:

a) Bosh vazir o‘rinbosarlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tijorat banklari rahbarlari har oy grafik asosida:

mahallalarga chiqqan holda hamda tematik yondashuv asosida tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashuvlar tashkil qiladi, tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan masalalar yuzasidan “yo‘l xaritalari”ni tasdiqlaydi va muammolar tezkorlik bilan hal etilishini ta‘minlashi;

yillik daromadi 1 trillion so‘mdan oshgan, 5 mingdan ortiq ish o‘rinlarini yaratgan hamda kamida 100 milliard so‘m soliq to‘layotgan yetakchi (“champion”) tadbirkorlik subyektlari ro‘yxatini shakllantirgan holda ular masalalari bilan manzilli ishlashni tashkil qiladi hamda boshqa tadbirkorlik subyektlarini ushbu toifaga olib chiqish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishi;

hal etilgan muammolar bo'yicha yig'ma ma'lumot hamda tizimli masalalar yechimi yuzasidan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va Jamoatchilik kengashiga taqdim etishi;

b) O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri har chorakda:

rahbarlar, hududlar va yo'nalishlar kesimida tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashish grafigini tasdiqlashi;

Jamoatchilik kengashi a'zolari va tadbirkorlik subyektlari bilan ochiq muloqot shaklida uchrashuvlar o'tkazishi;

tadbirkorlik subyektlari masalalarini ko'rib chiqish natijalari, shuningdek, murojaatlarda ko'tarilgan tizimli muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini xabardor qilishi;

belgilanishicha:

ushbu Farmonning 12-bandiga muvofiq tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashuvlarda ko'tarilgan murojaatlar platformaga kiritiladi, vakolatli organlar tomonidan o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishi;

Biznes-ombudsman platformaga kiritilgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatiga rioya etish ustidan nazorat o'rnatishi hamda qonunbuzilish holatlari bo'yicha tegishli ta'sir choralari qo'llashi;

Tadbirkorlik subyektlari tashabbuslarini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosari – investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov